

TA'LIM – MAMLAKAT TARAQQIYOTNING USTUVOR OMILI

Ruziyev Bobosher Usarovich

Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ta'lism sohasidagi islohotlar har qanday davlatning muhim ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Oliy ta'lism sohasida jahon reytingida eng yaxshi Oliy o'quv yurtlari ro'yxatiga kirish esa mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Maqolada ta'lism tizimini isloh qilinishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy negizi ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: Oliy ta'lism, jadidchilik, jahon reytingi, eng yaxshi Oliy o'quv yurtlari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot.

Ma'lumki har qanday rivojlangan davlatlarda rivojlanishning sabablaridan biri bu mamlakatda ta'lism va ilm fanga bo'lgan e'tiborning darajasiga bog'liqdir. Zero bunga doir ma'lumotlarni bir qancha rivojlangan davlatlar tajribasida ko'rish mumkin. Zero mamlakat qanchalik boy bo'lmasin, ta'limga ustuvor yo'naliш sifatida qaramas ekan uning iqtisodiyoti o'zga mamlakat ta'sirida qoladi.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganidek "Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirdi, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi."¹

Albatta, mamlakatning iqtisodiy resurslari va geografik imkoniyatlari xam muhim hisoblanadi. Lekin boy tabiy resurslar hisobiga yaratilgan sharoitlar emas, balki mamlakatda ta'limga bo'lgan qat'iy etibor, uni sifat jihatdan yaxshilashga erishish kelajakda yaxshi samara berishi, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga olib kelishini ko'pgina davlatlar, masalan rivojlangan Yevropa davlatlari, yoki Osiyodagi Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapurning ijtimoiy-iqtisodiy taraqiyoti misolida ko'rish mumkin.

Umuman, XXI asr yuksak potensial talab qiladigan globallashuv davri bo'lib, bularning barchasi barcha davlatlarda ijtimoiy taraqqiyotida ta'limga katta e'tibor qaratishni talab etdiki, buni jahonnning ko'pgina davlatlarida ta'lism tizimiga bo'layotgan yangicha yondashuvda, alohida islohotlarda kuzatish mumkin.

XXI asr boshidan deyarli barcha sobiq ittifoq davlatlarida Oliy ta'limning eski tizimi tubdan o'zgartirildi. G'arb va Amerika namunasidagi oliy ta'lism tizim shakllantirila boshlandi. Negaki G'arbiy Yevropa va Amerika Oliy ta'limining demokratik tartiblar asosida olib borilishi va ta'lism sifati jihatidan bugun barchaga ayon bo'lib qoldi. Masalan, "QS World University Rankings" ma'lumotiga ko'ra 2022 yilda eng yaxshi 10 ta Oliy o'quv yurtlari reytingining 7 tasi AQShning Oliy o'quv

¹ Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. Т.Ўзбекистон.1999 й. 99-бет

yurtlariga to'g'ri kelgan.² QS reytingida bir necha yildan buyon AQSh va Buyuk Britaniya yetakchi o'rirlarda bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham Sobiq ittifoqning aksariyat davlatlarida AQSh namunasidagi Oliy o'quv yurtlari ochildi. Masalan Armaniston, Ukraina, Qirg'iziston va hattoki Yevropada Fransiya ham bunga misol bo'ladi.

O'zbekistonda esa ta'lim tizimi Podsho Rossiya bosqini va Sovet totalitar tuzumi yillarida davrida qattiq mafkuralashtirildi. Uzoq davom etgan bu jarayon ko'pgina salbiy oqibatlarga olib keldi. Mamlakat taraqqiyotdan ortda qoldi.

Rossiya imperiyasi bosqini davrida buni yaxshi bilgan jadidlar bunga qarshi kurash olib bordilar. O'lkani imperiya zulmidan qutqazishda birdan bir yo'l xalqning ijtimoiy ongini oshirish, buning uchun esa ta'limni rivojlantirish, mamlakatning barcha sohasida boshqaruvni mahalliy kadrlar qo'liga o'tkazib va shu tariqa ijtimoiy rivojlanish orqali bevosita mustamlakachilik zanjirlarining parchalanishiga erishish edi. Rivojlanishining yagona omili –ta'lim ekanligini yaxshi bilgan jadidlar XIX asr oxirlarida yangi usulda maktablar tashkil etishdi. Zamonaviy ta'limni joriy etishga urinishdi. Lekin mustamlaka tuzum sharoitida bunga qarshilik bo'lgani uchun, yoshlarni imkon qadar rivojlangan mamlakatlarga o'qishga yuborishni boshladilar.

XX asr boshlarida , aniqrog'i 1911 yilda, birgina Buxorodan 11 talaba, 1912 yilda 30 talaba Istanbulda o'qir edilar.³

Adabiyotshunos olim Sh.Turdiyev o'z asarida bu davrda mamlakatdan ko'plab yoshlar turli xorijiy mamalakatlarga o'qishga yuborilgani haqida qimmatli ma'lumotlar keltirib, birgina Germaniyaga 1922 yilda 70 ga yaqin shunday yoshlar o'qishga yuborilganligini ta'kidlagan.⁴ Shuning uchun ham mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ham ta'limni rivojlantirishga e'tibor qaratib: "Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir. Asrimiz boshida Turkistonda kechgan voqyealarni bir eslang. Nega bu o'lkada o'sha yillari ma'rifatchilik harakati har qachongidan ham kuchayib ketdi? Negaki, chor Rossiyasi asoratiga tushib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o'lkani uyg'otishga, xalqning ko'zini ochishga faqat ma'rifat orqaligina erishish mumkin edi... Aql - zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi..."⁵ deb ta'kidlagan edi. Shuning uchun ham mamlakat ta'lim tizimida tub islohotlar o'tkazildi.

² www.timeshighereducation.com

³ С.Айний. Асрлар, 8 жилдлик, 1-жилд, Т.,1963 йил 233-бет

⁴ Турдиев . Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар.Т.2006 й. 10 -бет

⁵ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т.; 1998., 7-бет.

Mamlakatning “Ta’lim to’g’risidagi yangi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ishlab chiqilib, milliy dastur doirasida bosqichma-bosqich islohotlar islohotlar joriy etildi.

Qisqa vaqt davomida barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgan uzluksiz ta’limning yaxlit tizimi yaratildi. Respublikada oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sohasida ham islohotlar amaliyotga joriy etildi. Oliy ta’limning jahon standartlariga javob beradigan ikki bosqichli tizimi – bakalavriat va magistratura yaratildi.

Umuman, O’zbekistonda eski sobiq Ittifoq davridagi ta’lim tizimidan voz kechildi va yangi qonun va milliy dastur asosida(1997.29.08 “Ta’lim to’g’risida” gi yangi tahrirdagi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi) yangi ta’lim joriy etildi.

Mustaqillik yillarda oliy o’quv yurtlari soni oshib, joriy yilda ularning soni 210⁶ taga yetdi.

Shu jumladan, xorijiy mamlakatlar nufuzli oliy o’quv yurtlarining bir qator filiallari faoliyat yuritmoqda. O’zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 foizni tashkil etmoqda.

Albatta, islohotlar tezda yaxshi samara berdi deb aytish noto’g’ri. Buning bir qancha sabablari bor albatta.

Sobiq ittifoq davlatlarida balki ta’limga davlat mablag’i reja asosida ajratilgandir, lekin uning erkin ruhda rivojlanishiga imkon berilmadi. Barcha sohada bo’lgani kabi ta’lim mafkura ta’sirida edi. Mamlakatda korrupsiyalashgan va markazlashtirilgan tizim ta’limning sifatini tushirib yuborgandi.

Mustaqillikning dastlabki yillarda ham Ta’lim dargohlarining iqtisodiy erkinligi chinakkam raqobat muhiti yetishmadi.

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha sohada bo’lgani kabi mehnat bozori ham raqobatni talab qiladi.

Yuqorida keltirilganidek, Yevropa va Amerika ta’limining muhim jihatlaridan biri ta’lim dargohlarining iqtisodiy erkinligi va demokratik boshqaruvning joriy etilganligi. Shu bilan bir qatorda ularda Nodavlat Ta’lim dargohlarining mavjudligi ham raqobat asosida rivojlanishga olib keladi.

Shu bois, bugungi bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda sohadagi islohotlar yanada chuqurlashtirilib, mehnat bozori va resurslarining imkoniyatlarini jadal kengaytirish choralar ko’rilmoxda.

Shunga ko’ra prezident Sh.Mirziyoyev 2019 yilning 8 oktyabrida O’zbekiston Respublikasida Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risidagi farmonni imzoladi.

⁶ www.edu.uz

Unga ko'ra umumiy o'rta ta'limga bitiruvchilarining Oliy ta'limga qamrab olinishi 50% oshishi, buning uchun Oliy ta'limga sohasida davlat va xususiy sherikchilikni rivojlantirish, hududlarda davlat va Oliy ta'limga muassasalarini faoliyatini tashkil etish, O'zbekiston Milliy Universiteti va Samarqand davlat universitetlarini mamlakatimiz Oliy ta'limga muassasalarining flagmaniga aylantirish, shuningdek respublikamizdagi kamida 10 ta Oliy ta'limga muassasalarini xalqaro e'tirof etilgan etilgan tashkilotlar(QS World University Rankings, Times Higer Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi Oliy ta'limga muassasalar ro'yxatiga,O'zbekiston Milliy Universiteti va Samarqand davlat universitetlarini birinchi 500 ta o'rindagi Oliy ta'limga muassasalar ro'yxatiga kiritish va boshqa vazifalar belgilangan.⁷ Shunga ko'ra mamlakatimizda izchillik bilan islohotlar olib borilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, imperiya davri va Sobiq totalitar tuzum davrida butun SSSRda bo'lgani kabi O'zbekiston ham ta'limga sohasida ortda qoldi. Buning sabablari:

birinchidan, ta'limga bir tomonlama yondashildi. Ya'ni ta'limga bir partiya, yagona mafkura nazoratiga olindi. Bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas edi.

Imperiya davrida ulkan xom ashyo bazasiga aylangan mamlakatni, Sobiq SSSRning yagona partiyaga asoslangan hukumati ham tobe o'lka sifatida ushlab turish uchun barcha chorani qo'lladi . Bu esa ta'limga taraqqiyotdan ortda qolishiga, turg'unlikka olib keldi.

Ikkinchidan, uzoq davom etgan sovuq urush davri va xalqaro aloqalarning bir tomonlama olib borilishi ta'limga eski qolipda solib turdi. Natijada mamlakat dunyo ilg'or tajribasidan bebahra qoldi .

Shunday ekan, ta'limga yanada rivojlantirish uchun yuqoridaqilardan kelib chiqib, fikrimizcha, quyidagi omillarga etibor qaratish lozim bo'ladi:

Birinchidan, ta'limga dargohlariga mustaqillik berish, ta'limga tizimida yanada erkinliklarni joriy etish. Oliy va O'rta-maxsus ta'limga muassasalarini markazlashtirmasdan unga bir qator erkinliklar berishni talab qiladi. Bu boroda yurtimizda, bir qancha davlat Oliy ta'limga muassasalariga o'zini o'zi moliyalashtirishga ruxsat berildi.

Ikkinchidan, ta'limga barcha bosqichida xususiy ta'limga dargohlarini tashkil etish va raqobatni shakllantirish. Bungungi kunda bunga xam qisman erishildi, xususan, maktabgacha, o'rta va Oliy ta'limga bosqichlarida bir necha xususiy ta'limga dargohlari ochildi.

Uchinchidan, sohadagi professor-o'qituvchilarning xizmatiga munosib haq to'lash. Sifatli ta'limga erishgan davlatlarning deyarli barchasida sohadagi professor-

⁷ www.Norma.uz

o'qituvchilarning, ustoz va murabbiylarning oylik maoshlarini oshirganligini ko'rish mumkin.

To'rtinchidan, ta'lism dargohlaridagi o'qituvchilarning ish faoliyatini to'g'ri tashkil etish . O'qituvchilarning ijodiy faolitiga zamin yaratish. Tartibsiz tashkil etilgan dars jarayoni va rasmiyatchilikka asoslangan ortiqcha yuklamalar o'qituvchilarning ijodiy faoliyatiga katta to'siq hisoblanadi.

Beshinchidan, sohadagi professor-o'qituvchilarning, ustoz va murabbiylarning faoliyatiga tashqaridan aralashishni ta'lism-tarbiya jarayoniga to'siq bo'ladigan omillarni kamaytirish.

Buni Yaponiya va Singapur davlatlarining tajribasi misolida ham ko'rish mumkin.

Oltinchidan, ta'lism dargohlaridagi o'qituvchilar xususan, o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lism dargohlaridagi erkak va ayol o'qituvchi -murabbiylarning sonida ma'lum darajada tenglikni saqlash . Negaki bu omil bola tarbiyasida muhim ahamiyatga egaligi bugun pedagogika va psixologiyada ma'lum.

Yuqoridagilardan tashqari albatta, ta'lism jarayoniga innovatsion yangiliklarni jalgib etib borish, ta'lism oluvchilarga keng imkoniyatlar yaratish, rag'batlantirish, ularning iste'dodlarini ro'yobga chiqarishning obektiv va subektiv omilarini yaratish zarur albatta.

Shundagina ta'lism tizimi ko'zlangan natijalarni berishi mumkin albatta.

Foydalilanilgan adabiyot va manbalar:

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.O'zbekiston.1999 y
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz keljak yo'q. T. O'zbekiston.1998 y
3. Ayniy. S Asarlar, 8 jildlik, 1-jild, T.,1963 y
4. Turdiyev . Sh. Ular Germaniyada o'qigan edilar.T.2006 y
5. www.timeshighereducation.com
6. www.edu.uz
7. www.norma.uz